


**1-qism: Har bir topshiriq 1,3 balldan baholanadi**

**1. Qaysi ko'l Janubiy Amerika materigining shimolida joylashgan?**

- A) Titikaka      B) Poopo      C) Marakaybo      D) Patus

**2. Quyidagi xaritada 6-raqam bilan qaysi hudud ko'rsatilgan?**




- A) Ustyurt      B) Mirzacho'l      C) Qizilqum      D) Qarshi cho'li

**3. Qaysi iqtisodiy rayon mamlakatimizda aholisining soniga ko'ra oxirgi o'rinda turadi?**

- A) Janubiy      B) Mirzacho'l      C) Zarafshon      D) Quyi Amudaryo

**4. Quyidagi rasmni diqqat bilan kuzatib unda qaysi tabiat zonasini tasvirlanganini belgilang.**




- A) sernam ekvatorial o'rmonlar zonasasi      B) mavsumiy nam tropik o'rmonlar zonasasi

- C) savannalar va siyrak o'rmonlar zonasasi      D) chala cho'l va cho'llar zonasasi

**5. Qaysi tabiat zonasida fasllar almashinmaydi?**

- A) sernam ekvatorial o'rmonlar zonasasi  
 C) savannalar va siyrak o'rmonlar zonasasi  
 B) mavsumiy nam tropik o'rmonlar zonasasi  
 D) chala cho'l va cho'llar zonasasi

**6. Quyidagi chizmada berilgan A nuqtaning geografik koordinatalarini qaysi javobda to'g'ri ko'rsatilgan?**



- A)  $66^{\circ}$  shimoliy kenglik va  $13^{\circ}$  sharqiy uzunlik  
 C)  $66^{\circ}$  shimoliy kenglik va  $13^{\circ}$  g'arbiy uzunlik  
 B)  $66^{\circ}$  janubiy kenglik va  $13^{\circ}$  g'arbiy uzunlik  
 D)  $66^{\circ}$  janubiy kenglik va  $13^{\circ}$  sharqiy uzunlik

**7. Quyidagi masshtablardan qaysi biri eng kichik?**

- A) 1:2000000      B) 1:200000      C) 1:1500000      D) 1:90000

**8. Germaniyaning qaysi qismida asosan katoliklar yashaydi?**

- A) shimolida      B) janubida      C) g'arbida      D) sharqida

**9. Shimoliy Amerikaning qaysi iqlim mintaqasi  $40^{\circ}$  sh. k. dan Meksika qo'ltig'i oralig'idagi hududlarni egallaydi?**

- A) mo'tadil      B) subtropik      C) tropik      D) subekvatorial

**10. Muruntov oltin koni qaysi viloyatda joylashgan?**

- A) Buxoro      B) Farg'ona      C) Samarqand      D) Navoiy

**2-qism: Har bir topshiriq 2,4 balldan baholanadi**

**11. O'zbekistonda aholi punkti *shahar* maqomini olishi uchun qanday talablarga javob berishi kerak?**

- A) uning aholisi 5 ming va undan ko'p bo'lishi, yashayotgan aholining 2/3 qismi ishchi va xizmatchilar hamda ularning oilalaridan iborat bo'lishi  
 B) uning aholisi 7 ming va undan ko'p bo'lishi, yashayotgan aholining 2/5 qismi ishchi va xizmatchilar hamda ularning oilalaridan iborat bo'lishi  
 C) uning aholisi 7 ming va undan ko'p bo'lishi, yashayotgan aholining 2/3 qismi qishloq xo'jaligi xodimlari hamda ularning oilalaridan iborat bo'lishi  
 D) uning aholisi 7 ming va undan ko'p bo'lishi, yashayotgan aholining 2/3 qismi ishchi va xizmatchilar hamda ularning oilalaridan iborat bo'lishi

**12. Mirzacho'l iqtisodiy rayonining qaysi qismida qorako'l qo'yłari boqiladi?**

- A) janubi sharqidagi tog' yaylovlarida      B) janubi g'arbidagi tog' yaylovlarida  
 C) shimoli g'arbidagi cho'l yaylovlarida      D) shimoli sharqidagi cho'l yaylovlarida

**13. Tabiiy gazdan azotli o'g'it va kimyoviy tola ishlab chiqaradigan zavodlar barpo etilgan shaharlar to'g'ri berilgan javobni belgilang.**

- |                          |                      |
|--------------------------|----------------------|
| A) Andijon va Namangan   | B) Olmaliq va Angren |
| C) Toshkent va Samarqand | D) Farg'onva Navoiy  |


**14. Qozog'iston qaysi tomonidan Kaspiy dengizi bilan chegaralanadi?**

- |                    |                   |
|--------------------|-------------------|
| A) shimoli-g'arbiy | B) shimoli-sharqi |
| C) janubi-g'arbiy  | D) janubi-sharqi  |

**15. Musson shamollari qaysi hududlarda kuchli bo'ladi?**

- |                                |                                 |
|--------------------------------|---------------------------------|
| A) Shimoliy va G'arbiy Osiyoda | B) Shimoliy va Sharqi Amerikada |
| C) Sharqi va Janubiy Osiyoda   | D) G'arbiy Afrikada             |

**16. Quyidagi xaritada 2-raqam bilan ko'rsatilgan tabiat zonasiga xos xususiyatlar to'g'ri berilgan javobni belgilang.**



- A) doimiy yashilligi, ko'p yarusliligi (qavatliligi) va juda qalnligi  
 B) kunduzi havo harorati 40–50°C bo'lsa, kechasi 0 °C ga pasayishi, buning natijasida tog' jinslarida darz va yoriqlar paydo bo'lib, kuchli parchalanishlar kuzatilishi  
 C) quruq va sernam fasllarning almashinishi, har yer-har yerda yakka daraxt yoki to'p-to'p daraxtlar, butazorlar, o'tloqlarning ko'pligi  
 D) yil bo'yini issiqlik va namlikning ko'pligi

**17. Dunyo okeanining eng issiq suvi qayerda kuzatiladi?**

- |                            |                          |
|----------------------------|--------------------------|
| A) Arabiston dengizida     | B) Bengaliya qo'ltig'ida |
| C) Janubiy Xitoy dengizida | D) Fors qo'ltig'ida      |

**18. Kil kanali qaysi dengizlarni tutashtirib turadi?**

- |                          |                          |
|--------------------------|--------------------------|
| A) Norvegiya va Shimoliy | B) Norvegiya va Boltiq   |
| C) Shimoliy va Boltiq    | D) Shimoliy va Irlandiya |

**19. Sanoat rivojlanayotgan, tabiiy boyliklar o'zlashtirilayotgan joylarda vujudga kelgan shaharchalar jumlasiga qaysilar kiradi?**

- |   |
|---|
| A) Tomdibuloq, Iskandar, Yakkabog', Usmat, Zafar        |
| B) Pomuq, Ko'kdala, Zomin, Xonqa, Vodil                 |
| C) Paxtaobod, Kegeyli, Shohimardon, Taxtako'pir, Shovot |

D) Iskandar, Kegayli, Ulug‘bek, G‘ozg‘on, Zomin

**20. Quyidagilardan qaysi shaharda superfosfat, elektr mashinasozligi, to‘qimachilik mashinasozligi zavodlari mavjud?**

- A) Qo‘qon      B) Quvasoy      C) Farg‘ona      D) Marg‘ilon

**21. Avstriyaning federativ davlat sifatida barpo etishda quyidagilardan qaysi sabab hisobga olingan?**

- A) tarixiy rivojlanganlik xususiyatlari      B) hududining benihoya kattaligi  
 C) hududining sochilib ketganligi      D) aholisining ko‘p millatliligi

**22. Quyidagilardan Sharqiy Sibirning asosiy daryolari to‘g‘ri berilgan javobni belgilang.**


1) Kolima; 2) Dnepr; 3) Mezen; 4) Ural; 5) Taz; 6) Xatanga; 7) Ob; 8) Kura.

- A) 3; 4; 5      B) 1; 7;      C) 1; 6      D) 2; 6; 8

**23. Matnni o‘qing.**

Bu ko‘l chuqurligi 4 – 7 metr. Uning maydoni yog‘in miqdori va Shari daryosining toshishiga qarab o‘zgarib turadi. Ba’zan yomg‘irlar davrida ko‘l maydoni ikki barobar kengayadi. Qurg‘oqchil davrda qirg‘oqlari kichrayadi.

**Matnda berilgan ma’lumotlar quyidagi rasmda qaysi raqam bilan belgilangan ko‘lga oid ekanligini aniqlang.**



A) 3

B) 6

C) 7

D) 8

**24. Quyidagilardan tekisliklar to‘g‘ri berilgan javobni belgilang.**

1) O‘rta Sibir; 2) Amazonka; 3) G‘arbiy Sibir; 4) Braziliya; 5) And; 6) Kordilyera; 7) Sharqiy Yevropa;  
 8) Turon; 9) Tyanshan.


- A) 1; 3; 5      B) 1; 2; 9      C) 2; 4; 6      D) 2; 7; 8

**25. Qaysi qit‘a davlatlarida bolalar salmog‘i qariyalarnikiga nisbatan past?**

- A) Osiyoda      B) Amerikada      C) Afrikada      D) Yevropada

3-qism: Har bir topshiriq 3,4 balldan baholanadi

**26. Quyidagi xaritada ajratib ko'rsatilgan hududda qaysi jarayon KUCHLI rivojlanmoqda?**



- A) urbanizatsiya      B) depopulyatsiya      C) botqoqlashish      D) cho'llashish

**27. Matnni o'qing.**

Atom elektr stansiyalarining mamlakatda ishlab chiqarilayotgan elektr energiyasi tarkibidagi ulushi deyarli 80% ga teng. Bu jihatdan ushbu davlat dunyoda birinchi o'rinda turadi.

**Matnda berilgan ma'lumotlar qaysi davlatga oid ekanligini aniqlang.**

- A) AQSH      B) Fransiya      C) Rossiya      D) Yaponiya

**28. Matnni o'qing.**

*Viloyat aholisining 3/5 qismi qishloqda yashaydi. Butun aholi sonida mehnatga yaroqli kishilar salmog'i mamlakatdagi o'rtacha ko'rsatkichdan kam bo'lsa-da, lekin ishchi kuchlari iqtisodiyotni yuksaltirish uchun keragicha topiladi. Tabiiy sharoit va xo'jalik yuritishdagi tafovutlarga muvofiq aholi joylashuvida ham tafovut yaqqol ko'zga tashlanadi. Dehqonchilik qishloq xo'jaligi yalpi mahsulotining 75 foizini beradi.*

**Matnda berilgan ma'lumotlar qaysi viloyatga oid ekanligini aniqlang.**

- A) Farg'ona      B) Samarqand      C) Andijon      D) Qashqadaryo

**29. AQSH hududidagi kontinental shtatlarning sharqiy va markaziy qismlari asosan qanday relyef shakllaridan iborat?**

- A) tog'lardan      B) botiqlardan      C) qirlardan      D) tekisliklardan

**30. Matnni o'qing.**

*Mamlakat hududining 70% i tekisliklar bilan band bo'lib, mo'tadil, subarktika va arktika iqlim mintaqalarida joylashgan. Hududining 70% dan ortiq qismi dehqonchilik uchun agroqlimiy resurslar bilan yetarli darajada ta'minlanmagan.*

**Matnda berilgan ma'lumotlar qaysi davlatga oid ekanligini aniqlang.**

- A) AQSH      B) Kanada      C) Rossiya      D) Xitoy


**31. Quyidagilardan qaysi davlat ikkita okean akvatoriyasiga to'g'ridan to'g'ri chiqish yo'liga ega?**

- A) Madagaskar      B) Kosta-Rika      C) Turkiya      D) Myanma

32. Quyidagilardan qaysi davlatning qishloq xo‘jaligi ko‘proq subtropik dehqonchilikka ixtisoslashgan?

- A) Buyuk Britaniya    B) Italiya    C) Germaniya    D) Fransiya

33. D nuqtada havo harorati  $+2^{\circ}\text{C}$ , A nuqtada havo bosimi 730 mm Hg, C nuqtaning mutlaq balandligi 900 m bo‘lsa, B nuqtadagi havo haroratini aniqlang.



- A)  $+4^{\circ}\text{C}$     B)  $+7,6^{\circ}\text{C}$     C)  $+3,6^{\circ}\text{C}$     D)  $+5,6^{\circ}\text{C}$

34. Matnni o‘qing.

Xomashyo bazasi boy va xilma-xil. Turli foydali qazilmalardan, ishlab chiqarish chiqindilaridan, yog‘och, suv, hatto havodan foydalanadi. Turli xil xomashyolardan foydalanish imkoniyatining cheksizligi ushbu tarmoq sanoat korxonalarini hamma joyda qurishga imkon beradi. Biroq mazkur sanoat korxonalarini energiya va suvni ko‘p ishlatishi, ayniqsa, tabiatga jiddiy salbiy ta’sir ko‘rsatishi sababidan ularni hamma joyda ham qurish maqbul bo‘lavermaydi.

**Matnda berilgan ma’lumotlar qaysi sanoat tarmog‘iga oid ekanligini aniqlang.**

- A) yog‘ochni qayta ishslash sanoati    B) qora metallurgiya  
C) kimyo sanoati    D) avtomobilsozlik


35. AQSH, Rossiya, Kanada, Xitoy, Saudiya Arabistonining davlatlari qanday transport tarmog‘iga xos xususiyat bilan yetakchilik qilishadi?

- A) neft quvurlari uzunligi bo‘yicha    B) gaz quvurlari uzunligi bo‘yicha  
C) ichki suv transport yo‘llari uzunligiga ko‘ra    D) avtomobil yo‘llarining umumiy uzunligiga ko‘ra

36. Matnni o‘qing.

Bu zona nomi hindular tilida — “daraxtsiz yer” ma’nosini anglatadi. Sernam subtropik iqlim sharoitida hosildor qizil ferralit tuproqlar hosil bo‘lgan. O‘simgilklari — o‘tlar, ular orasida chalov, yovvoyi tariq va boshqalar ko‘philikni tashkil qiladi. Lamaning bir necha turlari, qushlardan nandu tuyaqushi xos.

**Matnda berilgan ma’lumotlar quyidagi xaritada qaysi raqam ostida ko‘rsatilgan tabiat zonasiga oid ekanligini aniqlang.**



- A) 3      B) 4      C) 5      D) 6

**37. Germaniya, Italiya, Ukraina, Serbiya, Bolgariya, Yaponiya mamlakatlarini qanday umumiy demografik xususiyat birlashtiradi?**


- A) demografik inqiroz jarayoni yuz bermoqda
- B) “demografik portlash” jarayoni yuz bermoqda
- C) aholisining yosh tarkibida bolalar salmog‘i eng yuqori darajaga ega mamlakatlar
- D) aholisining jins tarkibida ayollar salmog‘i past mamlakatlar

**38. Rasmda tasvirlangan ko‘lning 4-gorizontaliga exolotdan yuborilgan tovush 8 sekundda qaytib kelsa, gorizontall chiziqlar har necha metrdan o‘tkazilganligini aniqlang.**

- A) 1000 m    B) 1500 m    C) 2000 m    D) 2500 m

**39. Quyidagilardan qaysi asosiy o‘zgarishlar arxey erasida sodir bo‘lgan?**

- 1) toshko‘mir hosil bo‘lgan; 2) yosh tog‘lar shakllangan; 3) hozirgi keksa tog‘lar paydo bo‘lgan; 4) oddiy bakteriyalar paydo bo‘lgan; 5) iqlim mintaqalari shakllangan; 6) suvo‘tlar paydo bo‘lgan; 7) bahaybat dinozavrlar paydo bo‘lgan; 8) tabiat zonalari shakllangan.



- A) 1; 5      B) 2; 8      C) 4; 6      D) 3; 7

**40. Qaysi iqlim mintaqasida yoz issiq, seryomg‘ir, qish iliq, quruq iqlim xususiyatlariga ega?**

- A) mo‘tadil      B) subtropik      C) tropik      D) subekvatorial